

## IQTISODIYOTNI TARTIBLASHDA BOZOR MEXANIZMI

*Rozmatova Umida Yuldashevna*

*Toshkent moliya instituti Iqtisodiy tahlil kafedrası mustaqil izlanuvchisi*

*Toshkent O'zbekiston Email: [umidayuldashevna@gmail.com](mailto:umidayuldashevna@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiyotni tartiblashda bozor mexanizmi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning monetar va yangi klassik modellari, bozor iqtisodiyotining tartiblanishi, iqtisodiyotni tartiblashda davlatni roli va vazifalari, iqtisodiyotni tartiblash va uning zarurligi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, bozor mexanizmi, iqtisodiyotni tartiblash, makroiqtisodiyot, ixtisoslashuv.

### **Kirish:**

Darhaqiqat, iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotni tartibga solish, boshqarish, tartiblashtirish kabi tushunchalar asosan bir xil ma'noni bildiruvchi tushunchalar sifatida foydalaniladi. Ma'lumki, «Iqtisodiyot nazariyasi» fani iqtisodiyotni ikki darajada: makro va mikrodarajada o'rganadi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartiblash ham shu ikki darajada olib boriladi.

Raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish xususiyatlariga intellektual vositalarning mavjudligi, axborotning ortib borayotgan ahamiyati, biznes tarmoqlarini tashkil qilish, internetdan keng foydalanish va axborot almashinuvining global xarakteri kiradi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Iqtisodiyotni tartiblash — bu undagi turli bo'g'inlar faoliyati darajasining bir-biriga bog'lanish va mos tarzda o'sib borishdir. Har qanday davlat iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot deb yuritiladi va bozor muhitida unga, eng dastlab, yalpi talab bilan yalpi taklif bir-biriga xos bo'lishi zarur bo'ladi. Buning uchun ishlab chiqarish tarkibi ham ularga mos bo'lishi kerak. Ushbu vazifani bajarishda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki usulidan foydalaniladi.

Raqamli iqtisodiyotning dastlabki asosi axborot texnologiyalari sanaladi. Buni raqamli axborot texnologiyasi deb atash to'g'riroq bo'ladi, sababi axborot texnologiyalari mos keladigan raqamlarga asoslanadi. Ularning evolyutsiyasi bir necha bosqichlarga bo'linadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shubhasiz, raqamli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti zaruratidan kelib chiqadigan ob'ektiv jarayondir.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmi birgalikda amal qilgandagina ma'lum darajada barqarorlikni, muvozanatni bir me'yorda ta'minlab, iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Iqtisodiyotni o'z-o'zini tartiblanishning bozor mexanizmi bozor tartibga solish ta'siriga

asoslanadi.

**Natijalar:**

Tartibga solishlar orasida narx asosan yetakchilik qiladi. Narx o'zgarishlarga xo'jalik faoliyatining moslashib borishi iqtisodiyotni tartiblab turadi. Bozor mexanizmi talab va taklif o'yiniga ularning mos bo'lishi yoki bo'lmasligiga asoslanadi va narx orqali amalga oshadi. Narx iqtisodiy xatti xarakatlarni o'zaro bog'lab talab va taklifni moslashtiradi iqtisodiy koordinator muvofiqlashtiruvchi vazifasini amalga oshiradi.

Narx tartibga solish sifatida iste'molni ham koordinatsiyalaydi. Narx ko'tarilganda xaridorlar harakati o'zgaradi, ular tavarlarni kam sotib oladilr. Bozor iqtisodiyoti tavar ishlab chiqarishga asoslangan, bu tovar ishlab chiqarish o'z navbatida mehnat taqsimotiga tayanadi, bu ishlab chiqarishni chuqur ixtisoslashuviga olib keladi.

**Muhokama:**

Davlatimizda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish chora-tadbirlari axborot texnologiyalari va elektron hujjat aylanishi sohasida bir qancha yangi samarali yo'nalishlarni shakllantirishga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri jahon darajasidagi internet tizimining barqaror ishlashi va yuqori sifatli aloqa vositalarining mavjudligiga aylandi.

Ixtisoslashuv bozorga moslashish uchun turli korxonalar vazifasiining koordinatsiyalashuvini taqazo etadi va bu vazifani ham narx amalga oshiradi. Agar davlat narxga aralashib, uni muzlatsa, ya'ni uni ma'lum bir miqdordan ortiq bo'lishini cheklab qo'ysa, bozor muvozanati buzilib, taqchilik yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartiblash klassik modeli tajribada qattiq sinovlarga dosh berolmadi. Makroiqtisodiyot davlatning aralashuvchisiz muvaffaqiyatli ko'tarila olmasligi ayon bo'lib qoldi. Yangi makroiqtisodiy regulator zarur edi.

**Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, makroiqtisodiyotni tartibga solishning tamomila yangi modeli yaratildi. Iqtisodiyotni mamlakat tarafidan tartibga solish – bu davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini ko'tarish uchun belgilangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Slogoda V.T. Iqtisodiyot nazariyasi asoslari. Darslik. - M.: FORUM: INFRA-M. 2009.
2. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-kitob: Oliy o'quv yurtlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. - T.: «Sharq», 2003.
3. Shodmonov Sh., G'ofurov U. va boshq. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. - T.: «Iqtisodiyot», 2010.
4. Shodmonov Sh., Jo'raev T., Alimov R.O'. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: "Moliya", 2002.